

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

ZARIFBAYEV JASUR SHAVKATOVICH

**ERBIY VA YEVROPIY BILAN LEGIRLANGAN KREMNIYNING
NUQSONLI TARKIBIGA TASHQI OMILLARNING TA’SIRI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Zarifbayev Jasur Shavkatovich

Erbiy va yevropiy bilan legirlangan kremniyning nuqsonli tarkibiga tashqi omillarning ta'siri..... 3

Зарифбаев Жасур Шавкатович

Влияние внешних факторов на дефектную структуру кремния, легированного эрбием и европием..... 23

Zarifbaev Jasur Shavkatovich

The influence of external factors on the defect composition of silicon doped with erbium and europium..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 47

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

ZARIFBAYEV JASUR SHAVKATOVICH

**ERBIY VA YEVROPIY BILAN LEGIRLANGAN KREMNIYNING
NUQSONLI TARKIBIGA TASHQI OMILLARNING TA’SIRI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/FM595 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hamdamov Jonibek Jumayevich,
fizika-matematika fanlari bo'yicha PhD, k.i.x.

Rasmiy opponentlar:

Otajonov Salim Madraximovich,
fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Ayupov Kutub Sautovich,
fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «17» 09 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent sh., Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy, Tel. (99871) 248-79-94, faks: (99871) 248-79-92, e-mail: info@ispm.uz, O'zMU huzuridagi YaFM ITI majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (70 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel. (99871) 248-79-92. e-mail: info@ispm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «06» 09 kuni tarqatildi.
(2025 yil «06» 09 dagi 70 raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.B. Utamuradova

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

O.X. Qo'ldashov

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.-f.d., professor

N.A. Turgunov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash

qoshidagi ilmiy seminar raisi,

f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuqori funksional, barqaror va takrorlanuvchi elektrofizik xossalarga ega bo'lgan yangi yarimo'tkazgich materiallarni yaratish, ularni turli tashqi omillarga - harorat, nurlanish, mexanik ta'sir kabi omillarga barqaror holatda ishlay oladigan qurilmalarga tatbiq etish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Rivojlangan davlatlardagi ilmiy markazlar va nufuzli oliy ta'lim muassasalari tomonidan klassik yarimo'tkazgich materiallaridan jiddiy farq qiluvchi, yangi tarkib va strukturalarga ega bo'lgan yarimo'tkazgichlarni tadqiq etish, ularning fizik xossalari chuqur o'rganish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, taqiqlangan sohasida chuqur energetik sathlar hosil qiluvchi kirishma atomlar - xususan, nodir yer elementlari qatoriga kiruvchi erbiy (Er) va yevropiy (Eu) elementlari bilan legirlangan monokristall kremniy namunalari, hozirgi zamon yarimo'tkazgichli texnologiyalarda istiqbolli material sifatida ko'rilmogda. Ushbu elementlar bilan legirlangan kremniy strukturasida faollashgan nuqson markazlari, panjara o'rnini egallagan ionlar va ularning komplekslari tufayli ilgari yarimo'tkazgichlar fizikasida kuzatilmagan yangi fizik hodisalar - masalan, fotoluminessensiya, magnitoptik effektlar, o'z-o'zidan shakillanuvchi past patensila to'siqli silisidlar kabi muhim holatlar kuzatilmogda. Bu esa ularning opto- va mikroelektronikada, xususan, datchiklar, optik kuchaytirgichlar, lazerlar va kvant qurilmalar yaratishda qo'llanish imkoniyatlarini ochib bermoqda.

Hozirda dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida nodir yer elementlari kirishmalari asosida kremniyda hosil bo'luvchi nuqsonlar va ularning fizik xususiyatlari hamda ularga tashqi omillar ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlarga katta e'tibor qaratilmogda. Shu nuqtai nazardan, erbiy va yevropiy bilan legirlangan kremniyda shakllanuvchi nuqsonlar strukturalarining fazoviy konfiguratsiyasi, ularning energetik pozitsiyasi, tashqi omillarga nisbatan barqarorligi va transformatsiyasi masalalarini chuqur o'rganish dolzarb vazifalardan hisoblanmogda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda yarimo'tkazgich materiallarda kuzatilgan fizik hodisalarni o'rganish, ularning mexanizmlarini aniqlash va amaliy qurilmalar sifatida tatbiq etish yo'nalishida muhim ilmiy yutuqlarga erishilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-mart 2021-yildagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹gi PQ-5032 son qarorida fizika sohasida ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini ishlab chiqish bilan uzluksiz aloqasining masshtabini kengaytirish, iqtisod sohasidagi masalalarni hal qilishga yo'naltirish, ilmiy tadqiqotlarni hamda innovatsion faoliyatning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish masalalari qo'yilgan. Bu yo'nalishda yangi funksional imkoniyatlari mavjud kam energiya talab etadigan yarimo'tkazgich asboblarni yaratish, ularga sarf etiladigan energiyani tejashga va tannarxini kamaytirishga imkon beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 19.03.2021 yildagi PQ-5032-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”² hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”³ farmonlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi PQ-5011-son “Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”⁴ Prezident Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁵ Prezident Qarori shuningdek, “Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 639-son qarorlarida ko‘zda tutilgan vazifalarni bajarishga ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. “Energiya, energiya resurslarini tejash, transport, raketa va kosmik texnikasi, aviatsiya, robototexnika, mashinasozlik va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish” dagi ustuvor yo‘nalishlarga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi yillarda yarimo‘tkazgich materiallarda, xususan, nodir yer elementlari bilan legirlangan kremniy strukturalarida tashqi omillar ta‘sirida yuzaga keladigan nuqsonlar tizimini chuqur o‘rganish olimlar va mutaxassislar e‘tiborini jalb qilmoqda.

Xorijiy olimlar kremniyni nodir yer elementlari bilan legirlash sohasida muhim natijalarga erishdilar. 1984-yilda H.Ennen (Germaniya) molekulyar-nurli epitaksiya usulidan foydalanib, birinchi bor legirlangan kremniy-erbiy (Er-Si) asosidagi diodlarda 1,54 mkm diapazonida fotolyuminessensiya kuzatildi. 1995-yilda Hommerix (AQSH) kremniyning g‘ovak tuzilishi Er³⁺ ionlarining fotolyuminessensiya intensivligini to‘rt barobar oshirishini tajribada isbotlab, nanoqatlamlar morfologiyasining faollashtiruvchi rolini ilmiy jihatdan asosladi. 2008-yilda Nicolas Reckinger va boshqalar (Belgiya) titan qatlami ostida sintez qilingan ErSi_{2-x} / n-Si kontaktlarida Shottki to‘sig‘ining eng past qiymatiga - $\Phi_B \approx 0,28$ eV ga erishdi. Bu esa SMOS (Shottki asosidagi metall-oksid-yarimo‘tkazgich) texnologiyasida silitsidlarni qo‘llashning yangi istiqbollarini ochib berdi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 29.10.2020 yildagi PF-6097-son

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 03.03.2021 yildagi PQ-5011-son

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 16.02.2023 yildagi PQ-57-son

Rossiyalik olimlar 1970-1980-yillarda Leningrad FTI (Ioffe) Lebedev A.A. va boshqalar tomonidan o‘tuvchi, notir yer elementlari va hk., kislorod-presipitatsiya va vakansiya-metall komplekslari bo‘yicha bir qator ishlar bajarilgan, ularning aksar maqolalari «Физика и техника полупроводников» jurnalida chop etilgan.

O‘zbekistonlik olimlar M.K. Baxodirxonov, A.T. Mamadalimov va S.Z. Zaynobbiddinovlar kompensirlangan kremniy asosidagi yarimo‘tkazgich materiallarning parametrlarini yaxshilash mumkinligini tajriba yo‘li bilan isbotladilar. Tadqiqotlar jarayonida K.P. Abduraxmanov, X.S. Daliyev va Sh.B. Utamuradovalar kremniyda bir qator chuqur energetik sathlarni aniqlab, ularning energetik xususiyatlarini belgiladilar.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, erbiy va yevropiy atomlari bilan legirlangan kremniy strukturalarida yuzaga keladigan nuqsonlarning tashqi omillar bilan o‘zaro ta‘siriga oid natijalar izchil va takrorlanuvchi xulosalarga olib kelmagan. Xususan, mavjud ilmiy ishlarda ushbu elementlarning kremniy kristall panjarasidagi fazoviy konfiguratsiyasi, ularning taqiqlangan soha ichida hosil qiladigan chuqur energetik sathlari va bu sathlarning elektr faolligi yetarlicha chuqur o‘rganilmagani aniqlandi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy loyihalari doirasida, O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligining grantlari mavzuli rejalariga muvofiq bajarildi. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: YOF-2-08 “Kremniy va nodir yer elementlari kirishmali ko‘p qatlamli kremniyli tuzilmalarda nurlanishning nuqsonlar hosil bo‘lishi va yo‘qolishiga ta‘sirini o‘rganish” (2010-2011 yillar) hamda MU-FZ-20171025461 “Lantan, gadoliny va yevropiy oksidlari dielektrik sifatida qo‘llanilgan kremniyli MDYA-tuzilmalarning elektrofizik xususiyatlari va xossalari” (2018-2019 yillar). Bundan tashqari, OT-F2-11 “D-elementlar kirishmalari mavjud bo‘lgan kremniyning sirt qatlamlari va hajmida nanoo‘lchamli nuqsonlarning shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish” (01.01.2017-31.12.2020 yillar) va IL-652207792 “Turli chuqur sathli yarimo‘tkazgichlarning optik, sig‘im va rezonans xossalari tahlil qilish asosida barqaror parametrlarga ega yuqori samarali kremniyli tuzilmalarni yaratish” (2023-2025 yillar) mavzularidagi ilmiy tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi erbiy va yevropiy bilan legirlangan kremniyning nuqsonli tarkibini va unga tashqi omillarning ta‘sirini kompleks tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

kremniyni erbiy va yevropiy kirishmalari bilan legirlashning fizik-kimyoviy jihatlari va texnologiyasini ishlab chiqish;

diffuziya usuli orqali erbiy va yevropiy kirishmalari bilan legirlangan kremniy namunalari elektrofizik xususiyatlarini tadqiq etish;

raman va rentgen spektroskopiyasi usullari yordamida erbiy va yevropiy bilan legirlangan kremniyning nuqsonli tuzilishini o‘rganish;

erbiy va yevropiy kirishmalari hosil qilgan chuqur markazlarning energetik spektrini aniqlash;

kremniyda erbiy va yevropiy kirishmalari hosil qilgan nuqsonlarning tuzilishi va morfologiyasi, samaradorligi hamda chuqur markazlar shakllanishiga texnologik omillarning ta'sirini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Choxralskiy usuli bilan o'stirilgan hamda nodir yer elementlari - erbiy va yevropiy kirishmalari bilan legirlangan monokristall kremniy olingan.

Tadqiqotning predmeti erbiy va yevropiy atomlari bilan legirlangan monokristall kremniyda nuqsonli komplekslar va chuqur sathlarning shakllanishi hamda rivojlanishining fizik-kimyoviy jarayonlari, shuningdek, tashqi omillar ta'sirida materialning morfologik, optik va elektrofizik xususiyatlaridagi o'zgarishni o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot obyekti sifatida erbiy (Er) va yevropiy (Eu) atomlari bilan legirlangan Si kremniy monokristallari ishlatildi. Sirt morfologiyasi va kirishmalarning taqsimlanishini tahlil qilish uchun skanerlovchi elektron mikroskopiyasi (SEM), energiya dispersiv spektroskopiyasi (EDS) hamda atom-kuch mikroskopiyasi (AFM) usullaridan foydalanildi. Kristall panjaraning fazaviy tarkibi va parametrlari rentgen difraksiyasi (XRD) yordamida aniqlandi. Tebranish modlari va kimyoviy bog'lanishlarni o'rganish uchun Raman va Fyurje infraqizil (IQ) spektroskopiyasi usullari qo'llanildi. Elektrofizik xususiyatlar, jumladan to'rt zond o'lchash va chuqur sathli sig'imli spektroskopiyasi (DLTS) usuli bilan aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ilk bor erbiy bilan legirlangan kremniyda Er-O bog'larining hosil bo'lishi tugunlararo optik faol kislorod konsentratsiyasi 35-40% ga kamayishiga va kislorod markazlarining optik faolligining pasayishiga olib kelishi aniqlangan;

ilk bor erbiy bilan legirlangan kremniyda ikkita yangi infraqizil tebranish modasi 495 va 848 sm^{-1} da aniqlangan va Er-O bog'larining shakllanganligini tasdiqlagan;

kremniyga Er va Eu oksid qatlamlar orqali diffuziyasi natijasida sirtga yaqin p^+ qatlamlar hosil bo'lishi va bu qatlamlarda faol nodir yer elementlari atomlarining konsentratsiyasi $(1\div 2) \times 10^{20} \text{sm}^{-3}$ ni tashkil etishi ko'rsatilgan;

uzoq muddatli lazer nurlanishi Er markazlarini qo'shimcha faollashtirishi va Si<Er> asosidagi diod tuzilmalarida 77 K da tokning qiymatini 25 barobargacha oshirishi aniqlangan;

Yevropiy bilan legirlangan kremniyda radiyatsiya natijasida hosil bo'ladigan nuqsonlarning kamayishi va Si<Eu> tuzilmalarining radiatsiyaga chidamliligini 2-3 martagacha oshirishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Er_2O_3 va Eu_2O_3 oksidlari asosida monokristall kremniyga nodir yer elementlarini diffuzion yo'l bilan kiritish uchun texnologik parametrlar kompleks asosda ishlab chiqildi. Taklif etilgan rejim sirtga yaqin hududlarda $(1-2) \times 10^{20} \text{sm}^{-3}$ gacha bo'lgan legirlangan p^+ -qatlamlarni barqaror shakllantirish imkonini berdi, bu esa yuqori tokli

diodlar va quvvatli o'ta yuqori chastotali qurilmalar uchun funksional asos yaratilgan;

IQ spektroskopiyasi asosida erbiy ionlarining kristall panjaradagi ishtirokini aniqlashga imkon beruvchi ishonchli diagnostik markerlar sifatida 495 sm^{-1} va 848 sm^{-1} chastotalardagi tebranish cho'qqilar tavsiflandi. Tadqiqotlari natijasida tugunlararo optik faol kislorod konsentratsiyasining 35-40% ga kamayishi va Er-O bog'lanmalarining shakllanishi fon yutilishni pasaytirib, Si<Er> asosidagi infraqizil nurlatgichlarning ichki kvant samaradorligini oshirishi eksperimental jihatdan asoslab berilgan;

Eu ionlarining kremniy strukturasi kiritilishi natijasida materialning radiatsion nuqsonlarga nisbatan chidamliligi ortishi aniqlandi, bu esa Si<Eu> asosidagi yarimo'tkazgich detektorlarining qo'shimcha radiatsion himoyasiz sharoitlarda - jumladan, kosmik va yadroviy muhitda - qo'llanish imkoniyatlarini ochib bergan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy yuqori aniqlikdagi o'lchov asboblari va qurilmalar (DLTS tizimi, skanerlovchi elektron mikroskop EVO 15, IQ spektroskopi FSM-2201, hamda Raman spektrometri SENTERRA II (Bruker, Germaniya)) orqali ta'minlangan. Nodir yer elementlari - Er va Eu bilan legirlangan kremniy namunalari morfologiyasi, tuzilishi va elektrofizik xossalari tahlil qilishda bir-biridan mustaqil eksperimental usullar qo'llanilgan hamda tajribalar bir necha bor takrorlangan. Olingan ilmiy natijalar mustaqil o'lchovlar va ilg'or ilmiy adabiyotlar bilan solishtirib tasdiqlangan. Asosiy ilmiy xulosalar ilmiy jurnallarda chop etilgan, shuningdek, dissertatsiya ishda taklif etilgan fizik modellar yarimo'tkazgichlar fizikasidagi nazariy asoslarga to'liq mos kelgani bilan ham tadqiqot natijalarining ishonchliligi tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijalari kremniy kristall panjarasiga nodir yer elementlari Er va Eu atomlarini diffuziya yo'li bilan kiritish jarayonida yuzaga keladigan kimyoviy va struktura o'zgarishlari haqidagi mavjud ilmiy tasavvurlarni sezilarli darajada boyitdi. Ilk bor Si-O-Si guruhlaridagi kislorod atomlarining Er va Eu atomlariga qisman almashishi natijasida barqaror Er-O va Eu-O bog'lanishlarining shakllanishi eksperimental tarzda aniqlanib, ularning infraqizil diapazondagi xos tebranish modalariga - 495 va 848 sm^{-1} - mos kelishi orqali ishonchli tasdiqlandi. Bu modalar intensivligining materialning optik faolligi bilan miqdoriy korrelyatsiyasi aniqlangani kremniydagi mahalliy struktura o'zgarishlari bilan foton so'rilishi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ochib beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tajriba natijalari asosida olingan kremniyda Er va Eu atomlarining diffuziyasi orqali yuqori o'tkazuvchanlikka ega, yuzaga yaqin joylashgan p^+ -qatlamlarni shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqildi. Bunday qatlamlar kuchli diodlar va o'ta yuqori chastotali qurilmalarning samaradorligini sezilarli darajada oshirishiga imkon beradi. Shu tariqa, ushbu tadqiqot natijalari yarimo'tkazgich qurilmalar texnologiyasida innovatsion yechimlarni taklif etib, axborot uzatish tizimlari hamda sensorli elektronika sohaslarida keng amaliy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Erbiy va yevropiy bilan legirlangan kremniyning nuqsonli tarkibiga tashqi omillarning ta'siri mavzusidagi jarayonlarini tadqiq qilish asosida:

Er_2O_3 va Eu_2O_3 oksidlari asosida yaratilgan diffuziya texnologiyasi orqali kremniy kristalli sirtiga yaqin sohada $(1\div 2)\times 10^{20} \text{ sm}^{-3}$ konsentratsiyaga ega bo'lgan p^+ -qatlamlar hosil qilish usuli ishlab chiqildi. Mazkur texnologik yechim, kremniyning sirtga yaqin sohasida nisbatan bir xil legirlanish qatlami hosil qilish imkonini berdi va bu usul "FOTON" aksiyadorlik jamiyatida diod va chastotali qurilmalar ishlab chiqarish texnologiyasiga joriy etildi ("FOTON" AJning 2025-yil 30-apreldagi 13-sonli ma'lumotnomasi). Yuqori konsentratsiyali p^+ qatlamlarning shakllantirilishi orqali Si<Er> va Si<Eu> asosidagi diod va tranzistor strukturalarining barqarorligi hamda talab etiladigan elektrofizik ishchi parametrlari ta'minlandi. Shu orqali tajriba namunalarida ishlash muddati 20% gacha oshishiga imkon bergan;

Tadqiqot davomida olingan lazer nurlanishi bilan qo'shimcha faollashtirilgan erbiy atomlari tufayli fotosezuvchanlikning ortishi va yevropiy atomlari orqali nurlanishga chidamlilikning oshishi kabi amaliy natijalardan Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida OT-F2-55 «Yangi funksional imkoniyatlarga ega nanomateriallarning yangi sinfi sifatidagi kirishma atomlari nanoklasterlarini shakllanishi negizida hajmiy strukturalashgan kremniy olishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish» loyihasini bajarish jarayonida foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 1-maydagi 02/02-1233-sonli ma'lumotnomasi). Dissertatsiya natijalaridan foydalanish kremniyda kirishma nanoklasterlarini shakllantirishning ilmiy asoslarini yaratgan. Bu esa opto va mikroelektronika uchun yangi funksional xususiyatlarga ega nanomateriallarni olish imkoniyatlarini ochib bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishini bajarishda olingan ilmiy natijalar 5 ta xalqaro va 8 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha 5 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa va fan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shundan 3 tasi Scopus bazasida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiya ishi 35 ta rasm va 2 ta jadvalni o'z ichiga olgan holda 115 betlik matndan iborat.

ISH MAZMUNINING ASOSIY QISMI

Dissertatsiya ishining kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, uning Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bilan aloqasi yoritilgan. Ko'rib chiqilayotgan muammo bo'yicha zamonaviy xalqaro tadqiqotlar atroflicha tahlil qilingan,

muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari aniq ifodalangan.

Dissertatsiyaning **“Kremniy tuzilishida nodir yer atomlarining fizik-kimyoviy xususiyatlari”** nomli birinchi bobida kremniyni nodir yer elementlari, erbiy (Er) va yevropiy (Eu) bilan legirlashga oid zamonaviy tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Ularni kremniy panjarasiga kiritishning fizik-kimyoviy xususiyatlari, jumladan 4f-lyuminessensiya, Er-O komplekslarining hosil bo'lishi, shuningdek implantatsiya va termik ishlov berish jarayonida nuqsonlar paydo bo'lish mexanizmlari ko'rib chiqilgan.

Si:Er va Si:Eu ning elektrofizik va optik xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, bunda harorat, nurlanish dozasi, oksid qoplamlari va tashqi omillarning nurlanish samaradorligiga ta'siri o'rganilgan. Kombinatsiyalangan legirlash va sirt strukturasi modifikatsiyalash usullari optoelektronika uchun mo'ljallangan namunalarning barqarorligi va funktsionalligini oshirish imkonini berishi aniqlangan.

O'tkazilgan tahlillar asosida Si ni Er va Eu kirishmalar bilan legirlash texnologiyasini ishlab chiqishga, ularning nuqsonli tuzilmaga, elektrofizik ko'rsatkichlarga va chuqur sathlar xususiyatlariga ta'sirini o'rganishga qaratilgan dissertatsiya tadqiqotining vazifalari belgilangan.


Dissertatsiyaning **“Tajriba tadqiqotlari uslubi va namunalarni tayyorlash texnologik jarayoni”** deb nomlangan ikkinchi bobida kremniyni nodir yer elementlari (erbiy va yevropiy) bilan diffuzion legirlash usuli va o'rganilayotgan tuzilmalarni tayyorlash texnologiyasi bayon etilgan. Kremniy tagliklarini tayyorlash, oksid qatlamlarini shakllantirish, issiqlik bilan ishlov berish va sirt qatlamlarini olib tashlashning o'ziga xos jihatlari keltirilgan. Ko'p qatlamli tizimlarning hosil bo'lish sharoitlari va kirishmalarining kremniy kristall panjarasi bilan o'zaro ta'siri ko'rib chiqilgan.

Diffuzion va qotishmali diod tuzilmalarini tayyorlash texnologik jarayonlari batafsil bayon etilgan. Bunda legirlash parametrlari, kontakt tizimini qurish va issiqlik ta'sirlarini modellashtirish kabi jarayonlar ham qamrab olingan. DLTS usuli orqali chuqur sathlar holatini o'rganishning asosiy tamoyillari, jumladan o'tish jarayonlarini qayd etish va spektrlarni shakllantirish usullari tushuntirilgan.

Skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) va energiya dispersiyali tahlil (EDS) yordamida namunalar morfologiyasini o'rganish metodikasi tasvirlangan. Shuningdek, infraqizil yutilish va kombinatsion sochilish (Raman spektroskopiyasi) spektrlarini qayd etish usullari ham keltirilgan. Ikkilamchi fazalarni aniqlash uchun rentgen-faza tahlilini o'tkazish shartlari ham batafsil yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Er va Eu atomlarining kremniyda nuqson hosil bo'lish jarayonlariga ta'siri”** nomli uchinchi bobida nodir yer elementlari - erbiy va yevropiy bilan legirlangan kremniyda nuqson hosil bo'lish jarayonlarini o'rganish natijalari keltirilgan. Infraqizil spektroskopiya yordamida Er bilan legirlashdan so'ng Si-O-Si tebranishlar intensivligining pasayishi aniqlandi. Bu hodisa kislorodning qayta taqsimlanishi va Er-O bog'larining shakllanishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

Olingan namunalar keyingi tadqiqotlarda nodir yer elementlari bilan legirlangan kremniyning nuqsonli tuzilishi, kirishmalarning taqsimlanishi va lyuminescent markazlarning shakllanishini o'rganish uchun ishlatildi.




1-rasm. n-Si nazorat namunasining IQ yutilish spektrlari.

1 - n-Si ustidagi oksid qatlami, 2 - n-Si sirtidan oksid qatlami qisman tozalangan, 3 - n-Si sirtidan oksid qatlami butunlay olib tashlangan.

Oksid qatlami qalinligi 5-15 nanometrdan ortiq bo'lgan barcha namunalarda $1080-1100\text{ cm}^{-1}$ sohasida Si-O-Si asimmetrik tebranishlariga mos keladigan kuchli chiziq kuzatiladi. Bu chiziqning joylashuvi va yarim kengligi oksidlanish darajasiga va kremniy oksidining ehtimoliy nostexiometriyasiga bog'liq (SiO_x , bunda $1 \leq x \leq 2$). Bizning tajribalarimizda, harorat va vaqt oshgani sayin, mazkur chiziq $1100-1110\text{ cm}^{-1}$ sohaga siljidi. Bu esa oksidning zichlashganini va uning stexiometriklik darajasi oshganini ko'rsatadi.

Ekspirimental ma'lumotlar ko'rsatishicha (1-rasm), qalin oksid qatlami ($\sim 150\text{ nm}$) bo'lgan ikki kremniy namunasining infraqizil spektrlari ($380-1700\text{ cm}^{-1}$ oralig'ida) va oksid qisman yemirilgandan keyingi holati o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. $\sim 1100\text{ cm}^{-1}$ atrofidagi kuchli chiziq Si-O-Si bog'ining asimmetrik valent tebranishlariga mos keladi, oksid qatlami olib tashlanganda uning amplitudasi pasayadi. $450-470\text{ cm}^{-1}$ sohasida Si-O-Si bog'ining tebranma harakati (rocking-moda) kuzatiladi. 605 va 621 cm^{-1} (v) dagi kichik cho'qqilar uglerod (C) va bor (B) kirishmalarini ko'rsatadi. Bu esa dastlabki kremniyning xususiyatlari yoki uning o'stirilish sharoitlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.


Dastlabki namunaga (1-rasm) nisbatan erbiy bilan legirlash (2-rasm) $1090-1110\text{ cm}^{-1}$ oralig'ida polosa amplitudasining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Ushbu chiziq maydonini miqdoriy baholash natijasida optik faol kislorod (Si-O-Si) miqdorining 35-47% ga kamayishi aniqlandi. Bu hodisa Er ning O bilan o'zaro ta'siri natijasida yuz beradi, bunda Er, Si-O-Si bog'laridagi O ning bir qismini o'rnini egallaydi va Er-O bog'larini hosil qiladi. Ehtimol, bu jarayon kichik Er_2O_3 klasterlari va Er-O-Si kirishma fazalarining shakllanishi bilan bog'liq bo'lsa kerak.



2-rasm. n-Si<Er> namunalarining IQ-yutilish spektrlari.

1 - boshlang'ich kremniy, n-Si; 2 - nazorat namunasi, n-Si; 3 - legirlangan namuna, n-Si<Er>.

Taxmin qilinishicha, Er ishtirokida termik ishlov berilganda SiO₂ tarkibidagi kislorod qisman qayta taqsimlanib, Er-O bog'larini hosil qiladi. Natijada mavjud Si-O-Si guruhlarining miqdori kamayadi, bu esa kremniy matrisasidagi kislorodning optik faolligini pasaytiradi. Shuningdek, Er-Si-O silikatlarining yoki Er₂O₃ nanodispers kirishmalari hosil bo'lishi ham mumkin.



3-rasm. Er bilan legirlangan n-Si namunalarining IQ yutilish spektrlari.

1 - nazorat n-Si kremniy, 2 - Er bilan legirlangan n-Si<Er> kremniy (sekin sovutish)

Ushbu holatda kirishmasizsiz namunalar tasvirlangan bo'lib, oksidlanuvchi qatlamli namunalarda qo'shimcha cho'qqi kuzatilishini ta'kidlash mumkin.

Cho‘qqilar 457 sm^{-1} , 605 sm^{-1} , 621 sm^{-1} , 1090 sm^{-1} va 1107 sm^{-1} da joylashgan. 457 sm^{-1} da sirdagi Si-O bog‘ining deformatsiyasi, 842 sm^{-1} da Si-O bog‘ining egilishi, 1107 sm^{-1} da esa Si-O-Si bog‘ining cho‘zilishi kuzatiladi. 605 sm^{-1} dagi cho‘qqi Si-C bog‘iga mos keladi.

3-rasmda, shuningdek, Er-O bog‘lanishiga mos keladigan 495 sm^{-1} va 848 sm^{-1} da joylashgan ikkita qo‘shimcha cho‘qqini kuzatish mumkin. Bu cho‘qqilar faqat erbiy bilan legirlangan namunalarda paydo bo‘ladi va nazorat namunalari uchramaydi. IQ-spektroskopiya kimyoviy tarkibiy qismlarni va ularning sirt tebranishlarini aniqlash imkonini beradi. Biroq, biri kremniy bilan bog‘liq bo‘lgan ikki turdagi bog‘lanishni IQ-spektroskopiya yordamida aniqlash imkonsiz, chunki ular namunalarda kirishma sifatida mavjud bo‘lgan erbiy bilan butunlay qoplangan.

Er kiritilishi natijasida sirt oldi sohasida Er-O komplekslari hamda oksid va silikat nanofazalarining shakllanishi, shuningdek, ASM va SEM usullari yordamida aniqlangan sirt tuzilishining sezilarli morfologik o‘zgarishlarga uchrashi ko‘rsatib berildi.


Atom-kuch mikroskopiyasi (AKM) ko‘rsatishicha (4-rasm), n-Si<Er> namunasi o‘tkir uchli bo‘rtiqlar bilan yanada yaqqolroq relyefni namoyon etadi. Z o‘qi bo‘yicha maksimal amplituda $\sim 47,1\text{ nm}$ ni tashkil etib, bu termik ishlov berilgan kremniyga ($\sim 64,4\text{ nm}$) nisbatan rasman pastroq. Biroq, vizual jihatdan cho‘qqilar zichroq va to‘plangan ko‘rinadi, bu esa sirt notekisliklarining kuchayganligidan dalolat beradi.

Relyefning chiziqli profili balandlikning 40-45 nm gacha tez-tez keskin o‘zgarishlarini ko‘rsatadi, bu esa yuzaning orolsimon tuzilishini tasdiqlaydi. Balandliklar taqsimoti gistogrammasi etalon kremniyga nisbatan kengroq xususiyatga ega: taqsimot maksimumi o‘ngga siljigan, uning “dumi” esa yuqori qiymatlar sohasiga cho‘zilgan. Bu esa 20-30 nm va undan yuqori balandlikdagi uchastkalar sezilarli miqdorda mavjudligini ko‘rsatadi.

Atom-kuch mikroskopiyasi (AKM) ko‘rsatishicha (4-rasm), n-Si<Er> namunasi o‘tkir uchli bo‘rtiqlar bilan yanada yaqqolroq relyefni namoyon etadi. Z o‘qi bo‘yicha maksimal amplituda $\sim 47,1\text{ nm}$ ni tashkil etib, bu termik ishlov berilgan kremniyga ($\sim 64,4\text{ nm}$) nisbatan rasman pastroq. Biroq, vizual jihatdan cho‘qqilar zichroq va to‘plangan ko‘rinadi, bu esa sirt notekisliklarining kuchayganligidan dalolat beradi.

Relyefning chiziqli profili balandlikning 40-45 nm gacha tez-tez keskin o‘zgarishlarini ko‘rsatadi, bu esa yuzaning orolsimon tuzilishini tasdiqlaydi. Balandliklar taqsimoti gistogrammasi etalon kremniyga nisbatan kengroq xususiyatga ega: taqsimot maksimumi o‘ngga siljigan, uning “dumi” esa yuqori qiymatlar sohasiga cho‘zilgan. Bu esa 20-30 nm va undan yuqori balandlikdagi uchastkalar sezilarli miqdorda mavjudligini ko‘rsatadi.

Erbiyni kiritish, ayniqsa kislorodli muhitda termik ishlov sharoitida, ehtimol, erbiy oksidlari va Er-Si-O silikatlarini o‘z ichiga olgan nanostrukturalarning shakllanishiga olib keldi. Bu esa sirt mikrog‘adir-budurligining sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘ldi.




4-rasm. Namunalarning strukturaviy tuzilishi atom kuch mikroskopi (ASM) yordamida tadqiq etildi:

a) n-Si etalon namunasi, b) n-Si termik ishlov berilgan namunasi, d) n-Si namunasi


Morfologik tahlil natijasida sirtning g'adir-budurligining keskin oshishi va orolsimon nanostrukturallarning mavjudligi aniqlandi. Qiyosiy SEM tekshiruvlari shuni ko'rsatdiki, kremniyni Er va Eu bilan legirlash jarayonida faza hosil bo'lishi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi.

Qiyosiy SEM tahlili shuni ko'rsatadiki, kremniyni turli nodir yer elementlari bilan legirlashda har xil nuqsonlar va fazalar hosil bo'lish jarayonlari kuzatiladi. Bu jarayonlar atom radiuslaridagi farqlar, kimyoviy faollik va intermetallik birikmalar hosil qilishga moyillik bilan aniqlanadi. Ushbu farqlar olinadigan materialning kerakli tuzilishi va funksional xususiyatlariga qarab ma'lum bir nodir yer elementini tanlash zarurligini tasdiqlaydi.

SEM tasvirlarining tahlili (5- va 6-rasmlar) kremniy sirtining morfologiyasida termik ishlov berish va nodir yer elementlari oksidlarining diffuziyasidan so'ng sezilarli o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi.





a)



b)

5-rasm. Kremniy tuzilmasining tasvirlari: (a) n-Si nazorat namunasi; (b) Er₂O₃-Si oksid qatlamidan diffuziyalanishdan keyingi namuna.




6-rasm. Yevropiy oksidi (Eu₂O₃) qatlamining kremniy bilan diffuziyasi natijasida hosil bo'lgan kremniy namunalari sirti morfologiyasi

Nazorat namunalarida bir necha mikron o'lchamli bo'laklarga ega bo'lgan "dag'al g'ovakli" relyef kuzatiladi. Bu relyef, ehtimol, ko'p bosqichli ishlov berish natijasida shakllangan. Taxminan 1100 marta kattalashtirilganda, yuza to'rsimon ko'rinish oladi. Bu holat qatlamning qisman "yemirilishi", diffuziya jarayonlari yoki oksid kirishmalarining hosil bo'lishini ko'rsatishi mumkin. Er₂O₃-Si qatlamining diffuziyasidan so'ng, sirt relyefi yanada notekis bo'lib, mahalliy orolsimon tuzilmalar va to'rsimon strukturalar paydo bo'ladi. Bu esa oksid plyonkalarining pishishi va yorilishi jarayonlari, shuningdek, silikat fazalarining shakllanishidan dalolat beradi. Umuman olganda, termik ishlov berish g'adir-budurlikning oshishiga, mikroyoriqlar va murakkab morfologik tuzilmalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu esa kremniyda sezilarli strukturaviy o'zgarishlar sodir bo'lganini ko'rsatadi. Er₂O₃-Si tuzilmalarida yuqori haroratli ishlov berishdan oldin metallning to'liq oksidlanmasligi tufayli kremniy bilan chegarada Er konsentratsiyasi ortishi aniqlandi. 1200 °C haroratda ishlov berilgandan so'ng, Er ionlari kremniy tagligiga diffuziyalanib, konsentratsiyasi $12 \cdot 10^{19} \text{ sm}^{-3}$ dan yuqori bo'lgan sirt qatlamini hosil

qiladi. Bu ko‘rsatkich odatdagi diffuzion legirlash uchun xos bo‘lgan qiymatlardan sezilarli darajada yuqoridir.

DLTS usuli yordamida n-Si<Er> da faollanish energiyalari $E_c-0,18$ eV va $E_c-0,39$ eV bo‘lgan ikkita chuqur sath aniqlandi. Lazer va ultrabinafsha nurlanish kabi tashqi ta’sirlar DLTS signallarining amplitudasini oshirishi, mavjud tuzoqlar konsentratsiyasining ko‘payishini ko‘rsatishi ma’lum bo‘ldi. Aniqlangan sathlarning tabiatini tasdiqlash uchun Arreniusning bog‘liqlik tahlili o‘tkazildi.




7-rasm. n-Si<Er> namunasining DLTS spektrlari

7-rasmda erbiy atomlari bilan legirlangan n-turdagi kremniy namunasi (n-Si<Er>) uchun uch holatdagi DLTS spektrlari keltirilgan: nurlanishdan oldin (qora egri chiziq), lazer nuri ta’siridan so‘ng (qizil egri chiziq) va ultrabinafsha nuri ta’siridan keyin (ko‘k egri chiziq). Har uchala spektrda kremniyning taqiqlangan zonasidagi chuqur sathlardan zaryad tashuvchilarning chiqishiga mos keladigan ikkita asosiy cho‘qqi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birinchi cho‘qqi past harorat sohasida (~ 110 K), ikkinchisi esa ~ 250 K atrofida joylashgan.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich holatda 110 K haroratdagi past haroratli cho‘qqi 0,30-0,35 nisbiy birlik atrofidagi amplitudaga ega ekan. Lazer nuri ta’siridan so‘ng amplituda taxminan 0,40 gacha ko‘tariladi, ultrabinafsha nur ta’siridan keyin esa maksimal qiymat 0,45 ga yetadi. Bunda maksimumning harorat holati deyarli o‘zgarmaydi. 250 K haroratdagi ikkinchi yuqori haroratli cho‘qqi ham nurlanishdan so‘ng kuchayadi: dastlabki holatdagi 0,09-0,10 dan lazer ta’siridan keyin 0,12 gacha va UB nurlanishidan so‘ng 0,13 gacha ortadi.


